

RAQAMLI DAVRDA LINGVISTIK TA'LIM: GEYMIFIKASIYA VA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI

Bekmuradov Ulug'bek Norkulovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: bekmuradov.u@gmail.com

Annotatsiya. Ta'limning jadal raqamlashuvi sharoitida xorijiy va ona tillarini o'qitishga oid yangi yondashuvlar faol rivojlanmoqda. Mazkur maqolada lingvistik ta'lim jarayonida geymifikasiya va sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish salohiyati tahlil qilindi. Ta'lim oluvchilarning motivasiyasini oshirish, ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish va til materialini samarali o'zlashtirishga qaratilgan zamonaviy geymifikasiya va sun'iy intellekt elementlariga ega platformalar hamda raqamli vositalar ko'rib chiqildi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarning o'qitish metodikasiga ta'siri va ularni amaliy lingvistika doirasida qo'llash istiqbollari alohida yoritib berildi.

Kalit so'zlar: geymifikasiya, sun'iy intellekt, lingvistik ta'lim, raqamlilashuv, ta'lim platformalari, amaliy tilshunoslik.

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda lingvistik ta'lim sezilarli o'zgarishlarga uchramoqda. Til o'qitishning an'anaviy usullari zamonaviy yondashuvlar, jumladan, geymifikatsiya va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari bilan to'ldirilib, o'quvchilarning motivatsiyasini va materialni o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [1]. M. Salmonovani ta'kidlashicha: "Bunday yondashuvlar shaxsiylashtirishni, qiziqishni va samaradorlikni kuchaytiradi" [2, 46].


Sun'iy intellekt yoki sun'iy idrok so'nggi yillarda gumanitar fanlarga, ayniqsa, amaliyotchi lingvistika sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. AI texnologiyalarining lingvistik ta'limga integratsiyasi nafaqat o'qitish usullarini, balki tillar bilan o'zaro aloqani ham o'zgartirdi. Bugungi kunda AI turli tillarda og'zaki va yozma nutqni aniq anglash, talqin qilish va yaratishga qodir intellektual tizimlarni yaratish imkonini bermoqda.

Ushbu sohadagi eng muhim yutuqlardan biri — tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) texnologiyasining qo'llanilishi bo'lib, u avtomatik tarjimonlar, chat-botlar, ovozli yordamchilar va moslashuvchan til platformalarining asosini tashkil etadi. Katta matn korpuslarida o'qitilgan raqamli o'qitish tizimlari grammatik tuzilmalar, semantik aloqalar va uslubiy xususiyatlarni aniqlay oladi, bu esa til o'rgatish va bilimni baholashda yangi imkoniyatlarni ochadi [3].

Chet tillarni o'rgatish kontekstida AI shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, moslashuvchan testlar, yozma ishlarning avtomatik tekshiruvi va nutqiy simulyatsiyalar sohalarida qo'llaniladi. Masalan, zamonaviy platformalar sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanib, talabani zaif nuqtalarini aniqlab, ularga mos individual mashqlar taklif etadi [4].

Fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishda nutqni tanish va sintez qilish texnologiyalari ham muhim o'rin tutadi. Ba'zi ilovalar talabani talaffuzini tahlil qilib, real vaqt rejimida fikr bildirib, fonetik ko'nikmalarni yaxshilashga yordam beradi [5].

O'zbekistonda innovatsiyalarning integratsiyasi bo'yicha qiziqarli dinamika kuzatilmoqda. 2024 yilda O'zbek davlat jahon tillari universiteti talabasi Mavlonbek Saparov "Angelfaces" nomli ko'p tilli o'quvchi robotni ishlab chiqdi. U AI, geymifikatsiyalangan mashqlar va vizual lug'atni o'z ichiga oladi va bolalarni o'zbek, ingliz, arab va koreys tillari kabi 8 ta tilni qiziqarli va samarali o'rganishiga yordam beradi [6].



Yana bir loyiha — Nodir Kamolovga tegishli bo'lib, u eshitish va nutq nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maxsus robotlar yaratmoqda. Uning ishlanmalari inklyuziv til ta'limida AI texnologiyalarining katta salohiyati borligini va moslashuvchan yondashuvning amaliy imkoniyatlarini namoyon qilmoqda [7].



Bunday innovatsiyalar o'quvchilarni o'qishga undash va metodikani individual ehtiyojlarga moslashtirish imkoniyatlarini yaratadi. SI — bu raqamlashuv davrida lingvistik ta'limning zamonaviy vositalaridan biri bo'lib, nafaqat texnologik, balki pedagogik yondashuvlarning rivojiga ham xizmat qilmoqda.

Ushbu texnologiyalarning istiqbollari har bir talabani shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda shaxsiylashtirilgan ta'lim trayektoriyalarini yaratish bilan bog'liq. Sun'iy intellect tizimlari talabalarni yutuq va kamchiliklarini tahlil qilib, ularga individual topshiriqlar taqdim eta oladi, bu esa o'qitishni samarali va maqsadga yo'naltirilgan qiladi.


Geymifikatsiya esa ta'lim jarayonini o'yinga aylantirib, talabalarni qiziqishini oshiradi. Geymifikatsiya (inglizcha *gamification*) so'zi "game" — ya'ni "o'yin" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, mazkur atama "o'yinga xos elementlarni o'yin bo'lmagan sohalarga qo'llash" degan ma'noni anglatadi. Unda darajalar, ballar va mukofotlar kabi elementlar mavjud bo'lib, yosh avlod uchun juda samarali

hisoblanadi. Bu yondashuv tilni o'rganishni nafaqat foydali, balki zavqli jarayonga aylantiradi.

Sun'iy intellektning yana bir istiqbolli jihati – kelgusida grammatik xatolarni aniqlashdan tashqari, madaniy va uslubiy xususiyatlarni tahlil qilishga qodir murakkab intellektual tizimlarni yaratishdan iborat bo'ladi.

Hozirda *Google Translate*, *DeepL* kabi zamonaviy tarjima tizimlari neyron tarmoqlardan foydalanib, matnlarni kontekst, grammatik tuzilish va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda tabiiy va aniq tarjima qilish imkonini bermoqda. *Duolingo*, *Memrise* kabi platformalar esa adaptiv algoritmlar asosida talabani darajasi va sur'atiga mos topshiriqlar taqdim etadi. *ChatGPT* kabi *AI-assistentlar* esa muloqot mashqlari uchun virtual hamkor sifatida foydalanilishi mumkin.

Dars jarayonida, masalan, *Kahoot!* raqamli platformasi orqali o'qituvchi yangi so'zlar bo'yicha real vaqtda savol-javoblar (viktorina), bellashuvlar o'tkazishi mumkin. O'quvchilar jamoalarda raqobatlashadi, to'g'ri javob uchun ballar yig'adi va sovrinlarga ega bo'ladi — bu o'yin elementlari motivatsiyani oshiradi.



Sun'iy idrok lingvistik tadqiqotlarda ham foydalanilmoqda, bular til evolyutsiyasini o'rganish, kam uchraydigan til va dialektlarni tahlil qilish, til jarayonlarini modellashtirish kabi sohalarida keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, eshitish va nutq imkoniyati cheklangan shaxslar uchun moslashuvchan ta'lim materiallari, ishora tili tarjimasini va nutqni yaxshilash ilovalari yaratish orqali ta'limning inklyuzivligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Biroq bu texnologiyalarni samarali joriy qilish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. O'qituvchilarni zamonaviy vositalardan foydalanishga o'rgatish, zarur infratuzilmani yaratish va algoritmlar ishlashining shaffofligini ta'minlash muhim.

Mutaxassislar va ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali global tajriba almashish va innovatsiyalarni ta'lim amaliyotiga tezroq joriy qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar tez sur'atda rivojlanayotgan zamonda geymifikatsiya va AI texnologiyalarini lingvistik ta'limga integratsiya qilish nafaqat dolzarb, balki zaruriy talabga aylandi. Bu innovatsion yondashuvlar an'anaviy o'qitish usullarini interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan va qiziqarli tarzda qayta shakllantirish imkonini beradi. Bu sohadagi mahalliy va xalqaro muvaffaqiyatli tajribalar ushbu texnologiyalarning samaradorligini isbotlab turibdi. Geymifikatsiya va AI texnologiyalari uyg'unligi raqamli davrda lingvistik ta'lim sifatiga yangi sur'at va imkoniyatlar ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bachiri, H., & Sahli, R. (2023). The impact of gamification on students' motivation in language learning. *International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET)*, 18(4), 132–144. <https://doi.org/10.3991/ijet.v18i04.37195>
2. Salmanova, M. (2023). Raqamli texnologiyalar davrida xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar. *O'zbekiston Filologiyasi Ilmiy Jurnali*, (4), 45–50.
3. Meurers, D., & Dickinson, M. (2017). Evidence and interpretation in language learning research: Opportunities for collaboration with computational linguistics. *Language Learning*, 67(S1), 66–95.
4. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 16(1), 1–27. <https://doi.org/10.1186/s41239-019-0171-0>
5. Lu, X., Ai, H., & Liu, Y. (2022). Automatic speech recognition and feedback in language learning: Trends and challenges. *Computer Assisted Language Learning*, 35(7), 1451–1471.
6. <https://fledu.uz/> (2024). O'zDJTU talabasi bolalar uchun til o'rgatuvchi robot yaratdi. <https://fledu.uz/language/uz/ozbekiston-davlat-jahon-tillari-universiteti-talabasi-bolalarning-chet-tillarini-samarali-va-qiziqarli-organishi-uchun-maxsus-robotni-yaratdi/>
7. <https://kun.uz>. (2024). Gapirish va eshitishda nuqsoni bor bolalar uchun robotlar yasayotgan o'zbek yigitining hikoyasi. <https://kun.uz/news/2024/02/24/maqsadim-pul-emas-bolalarga-yordam-berish-gapirish-va-eshitishda-nuqsoni-bor-bolalar-uchun-robotlar-yasayotgan-ozbek-yigiti>